

**Aksiyadorlik tijorat Xalq bankining 2024-yil uchun Monopoliyaga qarshi  
komplayens tizimi bo'yicha  
HISOBOTI**

**I. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.**

Ichki nazorat va komplayens departamenti to'g'risidagi nizomga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini belgilovchi qo'shimchalar kiritilib qonunchilik talablariga muvofiqlashtirildi. Nizom bank Kuzatuv Kengashing 2023-yil 6 dekabrdagi 23-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlandi.

**II. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.**

Monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil qilish maqsadida 2023-yilning 25-dekabrda "Yo'l xarita" ishlab chiqilgan va bank Boshqaruvi Raisi o'rribosari tomonidan tasdiqlangan.

**III. Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplayens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.**

Bank tizimida qabul qilinayotgan ichki me'yyoriy hujjatlarni o'rghanish maqsadida bank Boshqaruvining 2023-yil 14-avgustdaggi 418-sonli xizmat farmoyishiga muvofiq "Ekspert guruhi" tarkibiga Ichki nazorat va komplayens departamentining mas'ul xodimi kiritildi.

**IV. Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.**

Mazkur sohaga oid murojaatlarni qabul qilish maqsadida "Komplayens@xb.uz" elektron pochtasi, "Tezkor xabar" mobil ilovasi va (95-197-99-01) Ishonch telefoni faoliyati yo'lga qo'yildi.

**V. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.**

O'rghanish davimida raqobatni yoki iste'molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalari bo'yicha holatlari va kamchiliklar aniqlanmadи.

**VI. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.**

Bank faoliyatga tegishli hujjatlar o'rghanilganda ularda monopoliya bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari aniqlanmadи.

**VII. Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.**

Bankda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflari baholanib borilmoqda.

**VIII. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.**

Ichki nazorat va komplayens departamenti to‘g‘risidagi nizomga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini belgilovchi qo‘srimchalar kiritilib qonunchilik talablariga muvofiqlashtirildi.

**IX. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.**

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, tovar va xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilayotgan shartnomalar Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan xulosa olingandan keyin pul mablag‘i o‘tkazib beriladi.

**X. Hisobot yilida xodimlarning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirilganligi.**

2024-yil davomida mas’ul shaxs tomonidan xodimlarning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv seminarlari tashkil etildi.

**XI. Xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o‘tkazilganligi.**

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida 2024-yil dekabr oyida test sinovlari o‘tkazildi va bilim ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazildi.

**XII. Tashkilot rahbari, ularning o‘rinbosarlari va mas’ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.**

Bankda korrupsiya va monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan o‘tkazilgan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri “O‘zbekiston 24” telekanali va bankning rasmiy veb-saytida yoritildi.

**Ichki nazorat va komplayens departamenti**